


INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY



Scopus || Electronic journal specializing in Scopus

ISSUE 9

 Acceptance of papers **September, 2025**



**Acceptance of
papers**

Published monthly



Topics

economics,
technology, social
sciences

ISSN 3060-5229



EDITOR-IN-CHIEF:

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Makhmudov Nosir Makhmudovich
DSc., Prof., Academician

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli – Senior
lecturer at TSUI

THE SCIENTIFIC-POPULAR ELECTRONIC
JOURNAL **"INNOVATION SCIENCE AND
TECHNOLOGY"** HAS BEEN REGISTERED
UNDER THE NUMBER **C-5669633** BY THE
AGENCY FOR INFORMATION AND MASS
COMMUNICATIONS (AOKA) OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN, EFFECTIVE
FROM OCTOBER 9, 2024.

CONTACTS

Phone: **+998 50 737 87 88**

Website: <https://ist-journal.uz>

Email: innovationist2025@gmail.com

The scientific electronic journal "Innovation Science and Technology" has been included in the list of scientific publications recommended for the publication of main scientific results of dissertations for the award of PhD and DSc degrees in economics and technical sciences, in accordance with the Resolution No. 370 of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan, dated May 8, 2025.

Editorial board:



Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,
Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor



Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor



Cham Tat Huei,
Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)



Muhammad Imran Sadiq
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
Professor, Malaysia



Ahmed Aziz Ismail
Doctor of Technical Sciences (DSc),
Professor (Egypt)



Lee Chin
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
(Malaysia)



Asongu Simplicé
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
Cameroon



Rui Dang
Doctor of Chemistry (DSc), Professor, China



Zahoor Ahmed
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Turkey



Shujaat Abbas
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Russia



Tina A Coffelt
Doctor of Philosophy in Educational Sciences
(PhD), USA



Judy B. Smetana
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), USA

CONTENTS

The financial mechanism of the treasury service	6
Zokir Safarboevich Mallaev	
Improving reinsurance relations between Russia and Uzbekistan.....	10
Mirzoev Saifullo Fayzulloevich	
The impact of artificial intelligence on risk assessment and fraud detection	17
Odilov Dilshod Quadratilla ugli	
Optimization of manufacturing efficiency using simulation modeling: pharmaceutical products datamatrix labelling cost minimisation	26
Aziz Saipov, Abdumalik Djumanov	
Financial oversight in the public procurement process.....	35
Abdushukurov Zafar Ismatovich	
Evaluating and improving the efficiency of drinking water supply (the case of Samarkand region).....	38
Pirova Shohina Khujmaxmatovna	
Analysis of technogenic waste from iron-containing metallurgical production processes.....	45
Axmedova Nigora Erkin qizi	
Mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy xazina amaliyotlaridan foydalanish	51
Seitlepesov Azamat Orazbayevich	
Methods for assessing the efficient use of resources in agriculture under green economy conditions.....	56
Aitmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
“Innovative and digital technologies in Uzbekistan’s construction sector: Economic effects and development prospects”	62
Ablaeva Valentina Borisovna, Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
Методологические основы анализа эффективности государственного финансового управления	67
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Strengthening fiscal governance mechanisms for the strategic reduction of the shadow economy.....	74
Ergasheva Malikakhon Avazkhon qizi	
Davlat iqtisodiy xavfsizligining global ekologik omillari	78
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
O'zbekiston sanoat korxonalarini qimmatli qog'ozlar asosida moliyalashtirishning tahlil va muammolari.....	83
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The importance of deposit operations in ensuring the stability of commercial banks.....	98
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Experiences of foreign countries in ensuring the balance between production and money supply.....	102
Uskenbaeva Dilnoza Bokhodir kizi	
Issues in improving the tax administration of high-income individuals	111
Umud Xolmurzayevich Normurzayev	
The influence of macroeconomic and institutional factors on foreign direct investment in South-east Asian countries.....	116
Ergasheva Bibi-Robiya, Maaz Ahmad, Kuldasheva Zebo	
Next stages of public procurement in Uzbekistan: green public procurement and international experience.....	123
Turabov Sarvar Abdumalikovich	

Priority directions and legal bases of improving of the tax system of the Republic of Uzbekistan.....	129
Sadikov Iskandar Gayratovich	
A precise sociological study on the creation of new jobs.....	134
Kholmuminov Shaizok Rakhmatovich	
Эффективность корпоративного управления банка и его финансовые показатели.....	142
Темиров Абдулазиз Алимжанович	
Expansion of financial opportunities for the introduction of innovative technologies in entrepreneurial activity.....	149
Daniyarov Kuvatbay	
Strategies for forming and managing the income potential of regions in foreign countries.....	153
Kobulov Khotamjon Abdulkarimovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budget imkoniyatlarini yanada oshirish yo'llari.....	160
Saparov Elmurod Donabayevich	

HUDUDLARNING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY BUDJET IMKONIYATLARINI YANADA OSHIRISH YO‘LLARI

Saparov Elmurod Donabayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil izlanuvchisi

E-mail: elmurod_saparov@inbox.ru

ORCID: [0000-0003-2938-1145](https://orcid.org/0000-0003-2938-1145)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonida mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda qo‘shimcha manbalar hisobidan amalga oshiriladigan dastur va loyihalarni samarali moliyalashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida davlat budjeti zimmasidagi yukni kamaytirish mexanizmlari, respublika va mahalliy darajadagi budjet siyosatining huquqiy-amaliy asoslari, shuningdek, Budjet kodeksi va Prezident qarorlari asosida hududiy budjet xarajatlarining o‘shirish dinamikasi chuqur o‘rganilgan. Olingan natijalar asosida mahalliy moliya tizimini takomillashtirish, hududlarning iqtisodiy mustahkamligini oshirish va moliyaviy barqaror infratuzilmalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mahalliy budjet, budjet xarajatlari, qo‘shimcha manbalar, moliyaviy mustaqillik, rivojlantirish fondi, infratuzilma loyihalari, Zaxira jamg‘armasi.

Abstract: This article explores the enhancement of local budget capacities in promoting the socio-economic development of regions. The study analyzes mechanisms for reducing the fiscal burden on the state budget, strengthening the financial independence of local budgets, and improving the effectiveness of financing regional projects through additional revenue sources. The research examines the legal and practical foundations of budget policy at national and local levels, as well as the dynamics of regional budget expenditures based on the Budget Code and presidential decrees. Based on the findings, scientifically grounded recommendations are proposed to improve the local public finance system and support sustainable regional development.

Key words: local budget, budget expenditures, additional revenue sources, financial independence, development fund, infrastructure projects, reserve fund.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения финансовых возможностей местных бюджетов в процессе социально-экономического развития регионов. Проанализированы механизмы снижения нагрузки на государственный бюджет, обеспечения финансовой самостоятельности местных бюджетов и эффективного финансирования региональных проектов за счёт дополнительных источников. В исследовании изучены правовые и практические основы бюджетной политики на республиканском и местном уровнях, а также динамика региональных бюджетных расходов на основе Бюджетного кодекса, указов и постановлений Президента. На основе проведённого анализа разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию системы местных финансов и повышению устойчивости регионального развития.

Ключевые слова: местный бюджет, бюджетные расходы, дополнительные источники, финансовая самостоятельность, фонд развития, инфраструктурные проекты, резервный фонд.

KIRISH

Hududlarning ijtimoiy-rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish va olmiyalashtirishda davlat byudeti muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, hududlarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish hamda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalarini oshirish imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘z navbatida, davlat budjetiga yukni kamaytirishi hamda mahalliy budjetning qarorlarni qabul qilish hamda davlat budjetiga bog‘liqligini kamaytirishga hizmat qiladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish, hududlarda, ayniqsa, mahallalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasini oshirish hamda tadbirkorlar uchun qulay investisiya muhitini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda PQ-454-son “2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Ushbu qaror bo‘yicha “Ochiq budget” axborot portali orqali jamoatchilik fikri va aholi istaklari asosida ta‘mirlab holatdagi hamda uzoq hududlarda joylashgan 77 ta maktabgacha ta‘lim tashkilotini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalarni rag‘batlantirish maqsadida zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini davlat hisobidan ta‘minlashga ajratilgan mablag‘lar miqdorini 3 barobar oshirish, sug‘orish tarmoqlari va gidrotexnika inshootlarini soz holatda saqlash, ta‘mirlash-tiklash (betonlashtirish) tadbirlari uchun yo‘naltirilayotgan mablag‘larni 1,7 barobar oshirish loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klassik iqtisodchi olim A. Smitning ta‘kidlashicha, “tuman va shaharlar ahamiyatini belgilovchi xarajatlar mahalliy – tuman yoki viloyat budjeti xarajatlarida aks etishi lozim va ular tegishli daromadlar hisobidan qoplanishi kerak. Bu kabi xarajatlarni jamiyatning umumiy daromadlari hisobidan moliyalashtirish maqsadga muvofiq emas”. U tuman darajasidagi xarajatlarga shahar yoki qishloq ichki tartibini ta‘minlovchi organlarni (milisiya) saqlash, ko‘cha yoritish bilan bog‘liq xarajatlar kabi faoliyatlarni kiritadi. Shu bilan birga, A. Smit bunday “mahalliy ehtiyojlar”ni yuqori budjetlar hisobidan to‘liq moliyalashtirish mumkinligini inkor etmaydi, biroq bunday yondashuv “samaradorlik nuqtai nazaridan maqbul emas” deb izohlaydi. Sababi – ushbu xarajatlarni butun qirollik aholisi tomonidan to‘langan soliqlar hisobidan qoplash hududning o‘zida yashamaydigan aholiga bevosita foyda keltirmaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar T. Malikov va N. Xaydarovlarning fikriga ko‘ra, “budget xarajatlari – bu davlatning o‘z funksiyalari va vazifalarini bajarishi natijasida yuzaga keladigan chiqimlar majmui” hisoblanadi.

A. Islamkulov fikricha, “hududlarda o‘z funksiyalarini samarali amalga oshirish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarida yetarli moliyaviy baza mavjud bo‘lishi zarur. Bu moliyaviy baza avvalo mahalliy budjetlar bilan belgilanadi. Mahalliy budjet mablag‘lari iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy dasturlarni, shuningdek mahalliy ahamiyatga ega boshqa tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi”.

Tadqiqotchi keyingi ishlanmalarida shuningdek, “mahalliy budjetlarning solikli daromadlarining rejadan oshgan qismini ma‘lum foizlarda qayta taqsimlash orqali Moliya vazirligi huzurida ‘Hududlarni rivojlantirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash fondi’ni tashkil etish maqsadga muvofiqligi” haqida taklif bildiradi.

Iqtisodchi T. Morin va M. Partridge AQSHning kam rivojlangan tumanlarida aholi daromadlari va bandlikni oshirishga qaratilgan hududiy dastur natijalarini o‘rgangan. Mualliflar federal va mahalliy budjet mablag‘larining hududiy dasturlarga yo‘naltirilishidan keyin olingan natijalarni baholash uchun indikatorlar tizimini taklif etadilar.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hududning rivojlanish darajasi, aholining turmush sharoiti, hududning iqtisodiy-ixtisoslashuvi, sanoat salohiyati, jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ulushi kabi qator ko‘rsatkichlardan kelib chiqib doimiy ravishda takomillashib boradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Xususan, tahliliy o‘rganish doirasida solishtirma tahlil, indeksiya, deduksiya kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, o‘rganilayotgan masalalar bo‘yicha xulosalar shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy va moliya vazirligi rasmiy saytida e‘lon qilingan ma‘lumotlar, statistik ko‘rsatkichlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar asosida tahlillar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 119-moddasiga muvofiq, har bir darajadagi budjetlar alohida tartibda shakllantiriladi. Har yil boshida aniqlanadigan budjetlarning erkin qoldiq mablag‘lari, yilning birinchi – uchinchi choraklari yakunlari bo‘yicha prognozdan ortiqcha tushgan daromadlar, elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar, shuningdek davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan mablag‘lar mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu mablag‘lar belgilangan tartibda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish xarajatlariga yo‘naltiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlarining qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida yangi tartiblar joriy etildi. Jumladan, ba'zi soliqlar bo'yicha rejadan ortiqcha tushumlarning muayyan qismi hududlar ixtiyorida qoldirilishi belgilandi. Qarorga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va foyda solig'ining rejadan ortiqcha bajarilgan qismi to'liq hajmda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha esa Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun 100 foiz, qolgan hududlar uchun 60 foiz miqdorida mahalliy budjetlarda qoldiriladi.

Bundan tashqari, mahalliy budjetlardan moliyalashtirilib kelgan ayrim budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarning viloyat yoki respublika budjetlariga o'tkazilishi natijasida mahalliy budjet xarajatlari hajmining avvalgi davrlarga nisbatan kamaygani kuzatilmoqda. Shu bilan birga, tegishli budjetlar tarkibida zaxira jamg'armalari shakllantirilishi shart bo'lib, ular tasdiqlangan umumiy xarajatlarning kamida 1,0 foizdan kam bo'lmagan miqdorda tashkil etiladi.

1-jadval. Mahalliy budjetlarning 2024-2025-yilgi xarajatlar solishtirmasi

№	Hududlar nomi	2024-yil		2025-yil		Farqi		Foizda	
		Jami xarajat	shundan Zaxira jamg'armasi	Jami xarajat	shundan Zaxira jamg'armasi	Jami xarajat	shundan Zaxira jamg'armasi	Jami xarajat	shundan Zaxira jamg'armasi
1.	Jami	29 496,6	276,9	33 057,5	301,4	3 560,9	24,5	112%	109%
2.	Qoraqalpog'iston	5 147,3	49,2	5 569,3	51,4	422,1	2,2	108%	104%
3.	Buxoro	4 593,5	43,0	5 267,1	48,1	673,6	5,1	115%	112%
4.	Qashqadaryo	5 806,2	54,4	6 238,5	56,0	432,4	1,6	107%	103%
5.	Navoiy	3 086,6	29,0	3 476,7	32,0	390,1	3,0	113%	110%
6.	Samarqand	6 780,2	63,2	8 008,6	73,0	1 228,4	9,7	118%	115%
7.	Xorazm	4 082,8	38,1	4 497,2	41,0	414,4	2,8	110%	107%

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Xorazm viloyatlarida 2025-yildan tuman (shahar) sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish (sanitariya epidemiologiya markazidan tashqari) viloyat budjetiga o'tkazilmoqda. Tuman (shahar) mahalliy budjeti xarajatlari miqdori kamayishi hisobiga mahalliy budjet parametrida Zaxira jamg'armasi (umumiy xarajatning 1 foizi) uchun rejalashtiriladigan mablag'lar miqdori ham kamaymoqda. Buning natijasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlaridagi loyihalarni hamda mahalliy budjetda ko'zda tutilmagan tadbirlar va favqulodda holatlarni moliyalashtirish uchun mablag' ajratish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.

Bunda, Samarqand viloyatining 16 ta tuman(shahar) mahalliy budjetining 2025-yil loyihada Zaxira jamg'armasi miqdori 2024-yilga nisbatan qariyb ikki barobarga, ya'ni 14,7 mlrd so'mga kamaygan. Misol uchun, 2025-yil mahalliy budjet loyihada Kattaqo'rg'on shahar Zaxira jamg'armasi 0,7 mlrd so'mni, ya'ni 2024-yil (1,4 mlrd so'm)ga nisbatan ikki barobarga kamaygan. Shuningdek, Urgut tuman Zaxira jamg'armasi 2024-yilda 3,1 mlrd so'm bo'lib, 2025-yil loyihada 1,6 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

2-jadval. Mahalliy budjetlarning 2024-2025-yilgi xarajatlar solishtirmasi (faqat tumanlar bo'yicha)

№	Hududlar nomi	2024-yil		2025 yil		Farqi		Foizda	
		Jami xarajat	shundan Zaxira jamg'armasi	Jami xarajat	shundan Zaxira jamg'armasi	Jami xarajat	shundan Zaxira jamg'armasi	Jami xarajat	shundan Zaxira jamg'armasi
1.	Jami	16 510,9	148,8	10 705,3	150,5	-5 805,6	1,7	65%	101%
2.	Qoraqalpog'iston	2 696,3	25,4	1 718,2	26,8	-978,1	1,4	64%	106%
3.	Buxoro	2 628,5	23,6	1 715,7	23,6	-912,7	0,0	65%	100%
4.	Qashqadaryo	3 247,9	29,0	2 035,1	29,3	-1 212,9	0,2	63%	101%
5.	Navoiy	1 803,4	16,3	1 203,7	16,3	-599,7	0,0	67%	100%
6.	Samarqand	3 910,0	34,8	2 57,1	34,8	-1 363,0	0,0	65%	100%
7.	Xorazm	2 224,8	19,7	1 485,6	19,7	-739,2	0,0	67%	100%

Ma'lumot uchun, 2020-yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablari Respublika budjetiga hamda ijtimoiy nafaqalarni moliyalashtirish viloyat va Respublika budjetiga o'tkazilishi natijasida tuman (shahar)lar mahalliy budjeti miqdori solmoqli hajmga kamaygan. Xuddi shunday, Buxoro viloyati 13 ta tuman (shahar) bo'yicha 10,8 mlrd so'm, Navoiy viloyati 11 ta tuman (shahar) bo'yicha 5,8 mlrd so'm va Xorazm viloyati 13 ta tuman (shahar) bo'yicha 8,6 mlrd so'mga kamaymoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarning qo'shimcha manbalari bo'yicha imkoniyatlarini saqlab qolish hamda mavjud mahalliy budjetlarda nazarda tutilmagan favquloddagi loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish maqsadida, sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishda tibbiy sug'urta tizimi joriy qilingan hududlarda tuman (shahar) mahalliy budjeti "Zaxira jamg'armasi" miqdorini umumiy xarajatlarga nisbatan 2 foizga oshirib hisoblash yoki ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmdan kam bo'lmagan miqdorda shakllantirilishini belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ushbu mablag'larning shakllantirilishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi. Shuningdek, uning ijrosi va natijadorligini ta'minlashda hududiy hokimliklar javobgarligini oshirish va hududiy deputatlar kengashlarining hisobdorligini ta'minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda "2025-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-454-son qarori. <https://lex.uz/docs/7278617>
2. Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinakh bogatstva narodov. – M.: Eksmo, 2007.
3. Malikov T. S., Haydarov N. H. Budjet daromadlari va xarajatlari (o'quv qo'llanma). Toshkent Moliya instituti. Toshkent, 2007. B. 148.
4. Islankulov A. Kh. Fiscal policy aimed at ensuring the equivalency of the budget in the medium term in Uzbekistan. Open Access Peer-reviewed Journal Science Review, 9(26), November 2019. Pp. 3-6. Index Copernicus (GIF-85.90). DOI: https://doi.org/10.31435/rsglobal_sr
5. Morin T., Partridge M. The impact of small regional economic development commissions: Is there any bang after just a few bucks? Economic Development Quarterly. 2021; 35(1): 22–39. DOI: 10.1177/0891242420972475

Proofreader: Zokir ALIBEKOV

Layout and Designer: Oloviddin Sobir ugli

2025. № 9

© When materials are reproduced, the INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY journal must be cited as the source. Authors are responsible for the accuracy of the information in materials and advertisements published in the journal. Editorial opinions may not always align with those of the authors. Submitted materials will not be returned to the editorial office.

To publish articles in this journal, you may submit articles, advertisements, stories, and other creative materials through the following links. Materials and advertisements are published on a paid basis.

You may subscribe to the journal at any time using the following details. Once subscribed, please send a screenshot or photo of your payment confirmation to our Telegram page @iqtisodiyot_77. Based on this, we will send the latest issue of the journal to your address each month.

“The journal “INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY” has been registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan from 09.10.2024 under the registration number №390637. License number: C-5669633. PNFL: 30407832680027

Our address: Tashkent city, Yunusobod district, 19th block,
House 17.



Acceptance of articles
Published every
monthly



Directions
Social, economic, political,
technological, scientific

 **Scopus || Scientific electronic journal specializing in Scopus**

CERTIFICATE NUMBER: №390637

**ORDER NUMBER ACCORDING TO
THE LICENSE REGISTER: C-5669633**

CONTACT:

 Contact us
+998 50 737 87 88

 Telegram channel
t.me/scopus_IST2100

 Journal official website
<https://ist-journal.uz/index.php/IST>